OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
_____ B. Axmedov
"___" _____ 2025-yil

"IJTIMOIY FANLAR" KAFEDRASI

"KONFLIKTLAR SOTSIOLOGIYASI" FANI SILLABUSI(KOS1304)

Bilim sohasi:	**300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot**
Ta'lim sohasi:	**310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar**
Ta'lim yo'nalishi:	**60310400 – Sotsiologiya**
Semestr	**3**
Kredıt mıqdorı	**4**

ANDIJON – 2025

Ushbu hujjat Andijon davlat universiteti mulki hisoblanadi va uni oluvchilar uchun maxfiy bo‘lib, to‘liq yoki qisman nusxa ko‘chirilishi, tarqatilishi yoki ko‘paytirilmasligi yoki uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Ushbu materialni ko‘paytirish, tarqatish, nusxalash, oshkor qilish, o‘zgartirish, tarqatish yoki nashr etishning har qanday shakli qat’iyan man etiladi.

Kun	
Avgust 2025	Ushbu sillabus Andijon davlat universiteti kengashining 2025-yil “___”-_____ dagi ____ -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
	Tuzuvchi: M.M.Nosirova – “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi v.b.dosenti, s.f.f.d.,(PhD).
	Taqrizchilar: 1. K.A.Yunusov – Andijon davlat universiteti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori, s.f.d. 2. N.A.Xushvaqova – Andijon viloyati hokimligi huzuridagi fuqarolarni o’zini o’zi boshqarish organlari hodimlarini malakasini oshirish markazi direktori s.f.f.d.,(PhD).

MUNDARIJA:

KOS1304 : KONFLIKTLAR SOTSIOLOGIYASI
1. Fan tavsifi 4
2. Fanning dastlabki rekvizitlari 4
3. Fanning maqsadi 4
4. Ta'lim berish natijalari 4
5. Ta'lim berish usullari 4
6. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar 5
7. Adabiyotlar 5
8. Soatlar/Kreditlar 6
9. Fanning tarkibiy tuzilishi 6
10. Talabalar bilimini baholash 8
11. Akademik talablar 9

Konfliktlar sotsiologiyasi (KOS1304)

1.Fan tavsifi.

Konfliktlar sotsiologiyasi – jamiyatda yuzaga keladigan turli xil ziddiyatlar, ularning sabablari, shakllari va yechimlarini o‘rganadigan sotsiologiyaning maxsus tarmog‘idir. Fan orqali ijtimoiy munosabatlardagi kelishmovchiliklarning mohiyati, ularning xavfsizlik, murosa, hamkorlik va ideologiyaga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, konfliktlarni boshqarish, oldini olish va hal qilish usullari hamda yangi dunyoqarash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash jarayonlari o‘rganiladi.

2.Fanning dastlabki rekvizitlari

Umumiy sotsiologiya (US110), Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi va texnikasi (STMMT 109), Sotsiologiya tarixi (ST 113).

3.Fanning maqsadi

Konfliktlar sotsiologiyasi **f**anining maqsadi – talabalarga konfliktlar sotsiologiyasi fanining predmeti, asosiy kategoriyalari, nazariyaning mohiyati va asosiy konsepsiyalari, konfliktning ijtimoiy tabiatini tahlil qilishdagi turli metodologik yondashuvlar hamda sotsiologik tadqiqotlarni o‘tkazish metodikasi haqida yaxlit tasavvur berishdir. Talabalarni aniq amaliy vazifalarni tahlil qilish asosida nizoli vaziyatlarning oldini olish, ularga boshqaruv berish va ularni hal etish faoliyatiga o‘rgatishdir.

4. Ta’lim berish natijalar

- Konfliktlar sotsiologiyasi faninini mustaqil fan sifatida shakllanishi omillari, uning tadqiqot obyekti va predmeti, strukturasi va fanlar tizimidagi o‘rni haqidagi bilimga ega bo‘lishlari kerak;
- Ta’lim jarayonida talabalar ijtimoiy nizolarni o‘rganishning turli yondashuvlari, uning xususiyatlari haqida bilim olishlari, jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida uning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilishni o‘rganishlari kerak;
- Jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar ta’siridagi nizolarning o‘ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy xavfsizlik, murosa va barqarorlikni ta’minlashda konfliktlar sotsiologiyasining ahamiyatini bilishi kerak;
- Konfliktlar sotsiologiyasi fanining nazariy va amaliy sohalarda erishilgan asosiy yutuqlari, muammolar va ularning rivozhlanish istiqbollari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- Turli turdagi ijtimoiy nizolarni tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak;
- Nizolarni oldindan bashorat qilish va ularning oqibatlarini baholash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak;
- Ijtimoiy ziddiyatlarni hal etishda murosa va muzokara usullarini qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak;

- Nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda tatbiq qilish va mustaqil tahlil va tadqiqot ishlarini olib borish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.

5. Ta’lim berish usullari

– real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
– esse, tezis va maqolalar yozish;
– vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
– jarayonli-yo‘naltirilgan ta’lim;
– muhokamalarda ishtirok etish;
– kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish;
– loyiha ishini bajarish;
– mustaqil ishlarni bajarish;
– taqdimot tayyorlash;
– turli darajadagi testlarni yechish;
– so‘rov o‘tkazish

6. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

1.Konflikt sotsiologiyasi fani rivojlanishi va shakllanishiga hissa qo‘shgan sotsiologlar (sotsiolog olim misolida.)

2.Konfliktlar sotsiologiyasining nazariy va empirik metodlari. Konfliktlarning tarixiy ijtimoiy shakllari

3. Ijtimoiy konfliktlarning kelib chiqish sabablari va turlari.

4.Konflikt sotsiologiyasi konfliktli muammolarni tadqiq qiluvchi fan sifatida (konfliktli muammolar misolida).

5. Qadimgi davr va o‘rta asr Sharq mutafakirlarining ijtimoiy ziddiyatlar haqidagi qarashlari.

6.Antik davr va o‘rta asr G‘arb faylasuflarining asarlarida konflikt tushunchasining ifodalanishi.

7. Fransuz ma’rifatparvarlarining qarashlarida konflikt muammosi.

8. M. Veber asarlarida ijtimoiy harakat va konfliktlarning o‘zaro ta’siri.

9. P. Sorokinning integral nazariyasi va ijtimoiy konfliktlar.

10.Siyosiy konfliktlar tushunchasining mazmun mohiyati.

11.Siyosiy konfliktlarning tipologiyasi.

12.Siyosiy inqirozlarning kelib chiqish sabablari.

13.Siyosiy konfliktlarni boshqarish.

14.Siyosiy ziddiyatlarni hal etishning huquqiy asoslari.

15.Markaziy Osiyodagi mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda O‘zbekistoning tutgan o‘rni.

16.Siyosiy konfliktning tuzilmaviy sabablari.

17.Siyosiy konfliktning institutsional manbalari.

18.Zo‘ravonlikka asoslangan siyosiy konfliktlarni bashorat qilish va oldini olish.

19. Ijtimoiy hamkorlikning mohiyati va mazmuni.

20.Konfliktologiyada xavfsizlikni sotsiologik tahlil qilish xususiyatlari.
21.Konfliktning oldini olish choralarini ishlab chiqishda sotsiologik ekspertizining roli.
22.Xulq-atvorning matritsali muvofiqlashuvi mohiyati va mazmuni.
23.Konfliktli vaziyatlarni bashorat qilish metodikasi.
24.“Konflikt kartalari”ni tuzish metodikasi.
25.Konfliktni hal etishda huquqiy va etik meyorlarning roli.
26.Konfliktni legitimlashtirish mohiyati va mazmuni.
27.Konfliktni boshqarish jarayoni.
28.Muzokarachi mutaxassislarni tayyorlashning o‘ziga xos jihatlari.
29.Konfliktni boshqarishni baholashning sotsiologik tahlili.
30.Konfliktning oldini olishda korporativ ideologiyaning roli.

7. ADABIYOTLAR.

Asosiy adabiyotlar:

1. Леонов Н. И. Конфликтология: Учеб. пособие. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Издательство Московского психолого-социаль ного института; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2006. — 232 с.
2. Р.З.Жумаев.Конфликтология:Монография. –Тошкент:2018. –300 б.
3. В. Н. Ставский. Социология конфликтов и катастроф. Могилев : МГУ: 2020. – 88 с.

Tavsiya qilinadigan qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Политическая конфликтология. Учебное пособие /Под ред. А.Коваленко и др. – М., 2002.
2. Функции социального конфликта. М. 2007.
3. Лебедева урегулирование конфликтов. М., 2009.
4. Конфликтология. Учебник для студентов / под ред. В.П.Ратникова.3-изд. – М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2012. – 543с.
5. Современный словарь по конфликтологии. /Научн. ред. В.А. Светлов. 2-е изд. М.: Флинта, 2016.
6. Шестопалова, О. Н. Социология конфликта : практикум – Екатеринбург: УрГУПС, 2017. – 69, [3] с.
7. Цветков В.Л. Конфликтология : учебное пособие. — Москва : ЮСТИЦИЯ, 2019. — 184 с.
8. Р. А. Валиев, В. Г. Каримова. Основы конфликтологии : учебное пособие / Уральский государственный педагогический университет ; – Екатеринбург : [б. и.], 2021. – 148 с. –
9. Т.З. Мансуров, Е.А. Терешина. Политическая конфликтология. – Казань 2021.

Internet manbalari:

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari portali.
3. www.ziyonet.uz - O‘zbekiston Respublikasi ta`lim portali.
4. www.UNWTO – Butunjahon turizm tashkiloti portali.
5. www.tour.uz - O‘zbekiston Respublikasi turizm davlat qo`mitasi.

6.www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi statistika qo`mitasi portali.

8. Soatlar/Kreditlar

Birinchi semestr kredit modul miqdori – 4 ECTS

Ikkinchi semestr kredit modul miqdori – 4 ECTS

Ta’lim turi	Ma’ruza	Seminar mashg‘ulot	Laboratoriya	Mustaqil ta’lim	Jami
Kunduzgi	24	24	-	72	120
Yillik, jami	24	24	-	**72**	**120**

9.Fanning tarkibiy tuzilishi

T/r	Mavzular	Ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlar rejasi:	Soatlar		
			Ma’ruza mashg‘ulotlari	Seminar mashg‘ulotlari	Mustaqil ta’lim
1.	**Konfliktlar sotsiologiyasi fan sifatida**	*1.Konflikt tushunchasining mazmun mohiyati.* *2.Konfliktlar sotsiologiyasi sotsiologik bilimning o‘ziga xos yo‘nalishi sifatida.* *3.Konfliktlar sotsiologiyasining predmeti, maqsad va vazifalari.*	2	2	6
2.	**Konfliktlar sotsiologiyasining vujudga kelish tarixi**	*1.Qadimgi davr va o‘rta asr Sharq mutafakirlarining ijtimoiy ziddiyatlar haqidagi qarashlari.* *2.Antik davr va o‘rta asr G‘arb faylasuflarining asarlarida konflikt tushunchasining ifodalanishi.* *3.Konfliktlarning sotsiologik nazariyalari.*	2	2	6
3.	**Ijtimoiy konfliktlar**	*1. Ijtimoiy konfliktlarning kelib chiqish sabablari va turlari.* *2. Ijtimoiy nizo bosqichlari.* *3. Nizo va zo‘ravonlik xulqi.* *4. Zo‘ravonlik tushunchasi. Noqonuniy va qonuniy shakllar.*	2	2	6

4.	**Millatlararo konfliktlarning o'ziga xos xususiyatlari**	*1.Etnos va millat tushunchalarining mazmun mohiyati.* *2.Millatlararo konfliktlarning strukturasi va mohiyati.* *3.Millatlararo ziddiyatlarning dinamikasi va turlari.* *4.Millatlararo konfliktlarni bartaraf etish usullari.* *5.Millatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni hal etishning siyosiy va huquqiy asoslari.*	2	2	6
5.	**Siyosiy va davlatlararo konfliktlar sotsiologiyasi**	*1.Ichki siyosiy nizo mohiyati, tushunchasi va tuzilishi, uning funksiyalari.* *2.Xalqaro nizolarning o'ziga xosligi va tiplari.* *3.Xalqaro nizolarning oldini olish xususiyatlari.* *4.Davlatlararo nizolarni hal etishda xalqaro huquq va xalqaro institutlarning roli.*	2	2	6
6.	**Oilaviy va shaxslararo konfliktlar**	*1.Shaxslararo konfliktlarning mazmun mohiyati.* *2.Shaxslararo konfliktlarning dinamikasi va bartaraf etish usullari.* *3.Oilaviy ziddiyatlarning jamiyat hayotidagi ahamiyati.* *4.Avlodlararo konfliktlarning o'ziga xos jihatlari.* *5.Oilaviy ziddiyatlarni bartaraf etish yo'llari.*	2	2	6
7.	**Diniy konfliktlar**	*1.Konfessiyalararo munosabatlar ziddiyatlarni vujudga keltiruvchi omil sifatida.* *2. Diniy konfliktlarning mazmun mohiyati kelib chiqish sabablari.* *3. Diniy ziddiyatlarning ijtimoiy oqibatlari.* *4.Diniy ziddiyatlarni tasniflari va bartaraf etish usullari.*	2	2	6
8.	**Tashkilotlar va boshqaruv sohasidagi konfliktlar**	*1.Tashkilotlar va boshqaruv tizimidagi konfliktlarning o'ziga xos xususiyatlari.* *2.Davlat boshqaruv tizimi va konfliktlar.* *3.Tashkilotlardagi ziddiyatlarning mehnat samaradorligidagi ahamiyati.* *4.Tashkilotlardagi konfliktlarning turlari, shakllari va tipologiyasi.* *5.Tashkilot va boshqaruv tizimidagi ziddiyatlarni bartaraf etish yo'llari.*	2	2	6
9.	**Zamonaviy huquqiy munosabatlar doirasida konflikt muammosi**	*1.Huquqiy ziddiyatlarni tushunishga doir turli yondashuvlarning sotsiologik tahlili.* *2.Huquqiy ziddiyatlarning mazmun mohiyati.*	2	2	6

		3.Huquqiy ziddiyatlarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy ahamiyati. *4.Huquqiy konfliktlarning dinamikasi, strukturasi, kelib chiqish sabablari.* *5.Huquqiy ziddiyatlarni hal etish usullari.*			
10.	**Iqtisodiy konfliktlar va raqobat**	*1.Iqtisodiy konfliktlarning mazmun mohiyati.* *2. Sog'lom va nosog'lom raqobat.* *3. Biznes raqobatning ijtimoiy oqibatlari.* *4.Iqtisodiy konfliktlarning funksiyalari.*	2	2	6
11.	**Konfliktlarni boshqarishning sotsiologik tahlili**	*1. XXI asrda tinchlik va xavfsizlik — odamlar va xalqlar o'rtasida ishonch, hamkorlik va muloqot sifatida.* *2. Konfliktlarni oldini olish bo'yicha harakatlar samaradorligini baholash mezonlari.* *3. Konfliktli vaziyatlarni oldini olishda institutsional-tarmoq metodologiyasining o'ziga xos jihatlari.*	2	2	6
12	**Globallashuv davrida mintaqaviy va ijtimoiy konfliktlarni bartaraf etishda O'zbekistonning roli**	*1.Markaziy Osiyodagi mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda O'zbekistoning tutgan o'rni.* *2.O'zbekistoning milliy totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati.* *3.O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida mintaqaviy ziddiyatlarni hal etish masalalari.*	2	2	6
		Jami :	**24**	**24**	**72**

10. Talabalar bilimini baholash

Maksimal va saralash ballari	**Ma'ruza mashg'ulotlarida 30 ball**		**Seminar mashg'ulotlarida 30 ball**		**jami**	**Yakuniy nazorat**	Jami
	Oraliq nazoat uchun	Mustaqil ta'lim	Joriy nazorat uchun	Mustaqil ta'lim			
Maksimal bal 100%	15	15	15	15	60	40	100
Saralash bali 60%	Saralsh bali 36 ball						
Nazoratni o'tkazish muddati va shakli	Fanning 70 foiz o'zlashtirilganda (yozma)		Seminar mashg'ulotlar davomida			Test	

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

YaB=JN+ON+YaN

Bu yerda:

JN — joriy nazorat; ON — oraliq nazorat; YaN — yakuniy nazorat.

Eslatma: dars mashg‘ultotlaridagi ishtiroki, joriy nazorat va oraliq nazoratlar uchun ajratilgan jami ballar (60 ball) ning kamida 60 foizi (36 ball)ni to‘play olmagan talabaning yakuniy nazoratga kirishiga ruxsat berilmaydi.

11. Akademik talablar

O‘qituvchi va talaba o‘trasidagi o‘zaro munosabat samimiy va beg‘araz bo‘lishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o‘quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi. Belgilangan muddatda bajarilmagan topshiriqlar qayta qabul qilinmaydi. O‘qituvchi talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlarni antiplagiat dasturida tekshiradi, originallik darajasi 70 foizdan past bo‘lgan ishlar baholash uchun qabul qilinmaydi. Talabaning bajargan topshirig‘i 2 martagacha antiplagiat dasturida tekshirilishiga imkoniyat beriladi, natija talab darajasida bo‘lmasa, ish qabul qilinmaydi.

O’quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i: **F.U.Odilov**

Fakultet dekani: **J.M. Xasanov**

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri: **M.P.Yunusova**

Tuzuvchi: **M.M.Nosirova**